

Ertak frazeologiyasining semantik xususiyatlari

Rustam Davronovich Jo'raqulov
jurakulov@samdhti.uz
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalq ertaklarining rus matnlari frazeologiyasi o'rganib chiqilgan. Bunda asosan ertaklarda uchragan turli turg'un so'z birikmalari semantik jihatdan tahlil qilingan va ertak frazeologiyasining o'ziga xos semantik maydonlari: vaqt, makon, sehrlil buyumlar, qiyoslash ma'nosini anglatadigan va boshqa guruhlar aniqlangan.

Kalit so'zlar: ertakka oid frazeologiya, turg'un so'z birikmalari, klisheli tuzilma, yaratuvchanligi faol, komponent-so'z, ifodalash, turg'unlashib, tuzilishi bo'yicha qiyosiy tur, taftologizmlar

Semantic characteristics of fairytale phraseology

Rustam Davronovich Jo'raqulov
jurakulov@samdhti.uz
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: The phraseology of Russian texts of Uzbek folk tales is studied in the article. In this, various stable word combinations found mainly in fairy tales were analyzed semantically, and specific semantic fields of the phraseology of fairy tales: time, space, magical objects, meaning of comparison and other groups were identified.

Keywords: fairy tale phraseology, fixed phrases, clichéd structure, creatively active, component-word, expression, stagnated, comparative type by structure, taftologisms

O'zbek xalq ertaklarining rus tiliga o'girilgan matnlari frazeologiyasida faqat ertakka xos turg'un so'z birikmalari (TSB) ham mavjud. Ularning semantik xususiyatlari o'zgacha xilma-xildir. Jumladan, birinchi o'rinda bu vaqt semantikasini ifodalovchi TSB lardir. Bunday TSB lar, ayniqsa juda qadim zamon ma'nosini bildiradi. Bu guruhda asosiy bazoviy TSB "в давние времена" hisoblanadi. Bu TSB o'zining yuqori darajali uchraganligi bilan ajraladi (75 marta qo'llanilgan). Bir qarashda oddiy klisheli tuzilma bo'lsa-da, "в давние времена" TSB o'z shaklining o'zgaruvchanligi bilan ham xarakterlanadi, ya'ni o'zining bir komponentini almashtirishi yoki konkretlashtirishi bilan. Natijada, bazoviy TSB ertak kontekstida

o‘zining bir qancha derivatlarini paydo qiladi. “В давние времена” TSBsi tomonidan yasalgan derivatlarni qiyoslang: «в стародавние времена», «в давние-давние времена», «в давние-предавние времена», «в давние сказочные времена» va shu kabilar.

TSB lar ertaklarda turli vaqt bo‘limlarini ifodalab keladi: “сорок дней и сорок ночей”, “три дня и три ночи”, “семь дней и семь ночей”, yana shunga o‘xshash: “девятсот девяносто девять лет (назад)”, “сто весен и сто зим (было старику)” va b.

Faqat ertakka xos turg‘un so‘z birikmalarining semantik xususiyatlaridan yana bir guruhini, yaratuvchanligi faol bo‘lgan tayanch bir komponent-so‘z bilan tashkillangan, makon semantikasini anglatuvchi TSB lar tashkil qiladi. Masalan, “один” so‘zi bilan: “в одном государстве (жил-был)”; город - «в одном городе (жил)»; страна - «в некоей стране (жил)» va b. Yana ertak qahramonlarining afsonaviy sarguzashtlari bo‘lib o‘tadigan qandaydir joylar nomlarini ifodalovchi toponimik TSB lar: «Кухи Каф» juda uzoq joy ma‘nosini anglatadi (xuddi ruscha «за тридевять земель» ifodasiga o‘xshash). O‘zbek xalq ertaklarida Ko‘hi Qof - bu dunyoning eng chekkasidagi yerni to‘rt tomondan o‘rab olgan baland tog‘lar bo‘lib, u yerdan asosan devlar tomonidan o‘g‘irlangan malikani yoki tansiq dori bo‘lmish o‘simlikni topish mumkin. Bunday TSB lar turiga yana quyidagi ifodalar kiradi: “Сад Эрам” - ‘райский сад’, u yerda asosan parilar va devlar yashaydi; «Пойдёшь-не вернёшься» (“Borsakelmas”) - ‘qaytib kelolmaydigan joy’; “Зам-зам” (hayotbaxsh /tirik/ suvli daryo) va b.

Ertak voqealari kechadigan joylarning ifodalash turg‘unlashib, ayrim hollarda maqol-matal xususiyatini olgan, taqqoslang: «Птица залетит - крылья спалит, человек зайдёт - ноги сожжёт»; (Qush uchsa - qanoti, odam o‘tsa oyog‘i kuyadi), «Птица пролетит - крылья опалит, человек пройдёт - ноги обожжёт».

Yana bir semantik bo‘limga ertaklarda uchraydigan turli sehrli buyumlar va hodisalarni anglatadigan TSB larni kiritish lozim: «ковёр-самолёт» («uchar gilam»), «шапка-невидимка» (“sehrli qalpoqcha”), «зеркало мира» (“oynai jahon”), «живая вода» (“hayot suvi”), «птица счастья» (Baxt /Humo/ qushi) va b. Bunday irreal ertaklar dunyosidagi narsa va hodisalarni ifodalovchi TSB larning yasalishida ayrim leksemalarning anchagina faolligi seziladi. Jumladan, волшебный - волшебный ковер (sehrli gilam), золотой - золотая рыбка (oltin baliqcha), птица - жар-птица (Humo qushi), конь - крылатый конь (qanotli ot) va shunga o‘xshashlar.

O‘zbek xalq ertaklari matnlarida uchraydigan FB lar rus tiliga o‘zlashma sifatida kirganligi ko‘zga tashlanadi va ular bunday matnlarga o‘ziga xos mazmun baxsh etadi. Bu asosan semantik, struktur va badiiy xususiyatlardir. Bunday FB larning xususiyatlari frazeosemantik maydon metodi orqali to‘lasincha o‘rganildi va, natijada, ertaklarning rus matnlarida o‘zbek milliy koloritini ifodalovchi unsurlar, misollar

kuzatildi. O'zbek tilidan o'zlashma FBlar asosan o'zbek xalqining tarixiy rivojlanishining turli xil xususiyatlarini, turli hayotiy holatlarga baho berishini, odob-axloq me'yorlarini va b. aks ettiradi. Qiyoslang: «пронести руками по лицу» («fotiha qilmoq»/qo'lini yuziga surtmoq), musulmonlarning duodan keyin qo'llarining harakati; «обрадовалась, как будто у него выросло шесть ног, а каждая из них делала шаг по семи шагов», ya'ni xursandchilikdan o'zini qo'yarga joy topolmaslik, o'zini yo'qotib qo'yish. Yoki «oyog'i olti, qo'li yetti» degan o'zbek FB siga o'xshash.

O'zlashma FB lar orasida tuzilishi bo'yicha qiyosiy tur hisoblanmish FB lar o'zining mahsuldorligi bilan ajralib turadi: «подходить, как одна половина яблока на другую» («olmaning bir bo'lagi ikkinchiga o'xshagandek»); «богатырь, подобный легендарному Рустаму» («afsonaviy Rustam /Rustam-u doston/ ga o'xshash pahlavon») va sh.k.

O'zlashma FB lar va alohida so'zlar rus tiliga o'girilgan o'zga millat matnlarida o'ziga xos kerakli element, vosita hisoblanadi. Ularning qayta o'zlashtirilishida kalkalash usuli asosiy o'rin tutadi. Rus tilida o'qiydigan o'quvchiga to'liq tushunarli bo'lishi uchun bunday o'zlashma so'z va FB larga ertak matnidano keying eslatmalarda izoh berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek xalq ertaklarining milliy o'ziga xosligi rus tiliga frazeologik antroponimlar orqali ham o'tadi. Bular ertakning ijobiy, mehribon timsollarining nomlari («Добрый джин», «Добрый дух», «Белый шах», «Медведь-богатырь»), hamda salbiy timsollarining («Злой джин», «Злой дух», «Чёрный шах», «Чёрный див») nomlanishi, shular jumlasiga kiradi.

Bo'limning yana bir qismini otlashgan, fe'lli, qiyosiy va boshqa FB lar semantik-struktur turlarining tahlili tashkil qiladi.

Otlashgan (substantiv) FB lar tahlili quyidagilarni aniqlashga asos bo'ldi. Kuzatuvimizdagi matnlarda bunday FB lar eng ko'p - 454 tani tashkil etdi va ularning hammasi b'lib 2000 dan ortiq marta qo'llanilganligi aniqlandi. Otlashgan FB larning tahlili struktur modellar kesimida o'tkazildi. Masalan, "sifat + ot" modeli bo'yicha tashkillangan FB lar («белый свет», «смертный час») hammasi bo'lib 120 tani tashkil qiladi va ular 400 martadan ko'p bor uchraydi. Yana bir sermahsul FB lar guruhini "ko'makchi + ot" («при виде», «на душе») modeli tashkil qiladi, ular jami 110 ta bo'lib, 700 martadan ko'p takrorlanadi.

Fe'lli FB larda, avvalo, komponentlari bo'yicha murakkablashmagan "fe'l + ot" modeldagi FB lar ajralib turadi ("взять верх", "набраться ума"). Bular orasida "прясть пряжу" kabi taftologizmlar ham uchrab turadi.

Tuzilishi jihatdan murakkablashgan FB larni frazeoshakli komponentlarining kengayishiga ko'ra tahlil qilamiz. Jumladan, bular ko'makchilar orqali kengayish, qiyoslang: «взять в жёны», «потерять из виду»; sifatlar ko'magida - «пуститься /отправиться, двинуться, тронуться/ в дальний /далёкий, долгий, добрый,

обратный/ путь /дорогу/»; son so‘z turkumi yordamida “быть на седьмом небе” va b. Shu o‘rinda turli fe’llarning frazeoyaratishdagi faolligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, *дать* fe’li 26 ta FB ni tashkil etadi, ular kuzatuvimizdagi matnlarda 158 marta uchraydi. Ertaklardagi fe’lli FB larda yasama fe’llarning ham frazeoyaratishdagi o‘rni anchagina yuqori. Jumladan, *дать /отдать, подать/* fe’li bilan yasalgan FB lar 22 tani tashkil etadi.

Ertak matnlarida yordamchi so‘zlar ko‘magida modellar tuzilishi muhim o‘rin tutadi. Bunda shunday FB lar modeli yaratiladiki, ular ertak matnlarini yanada jozibali, quvnoq bo‘lishiga hissa qo‘shadi. Taqqoslang: «и ... и ...» - «и стар и млад» (aynan, qari ham yosh ham; yosh-u qari); «ни ... ни ...» - «ни жив ни мертв» (na o‘lik na tirik) va b. bunday material, ya’ni ma’lumotlar tuzilishi bo‘yicha yasalishi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqildi, chunki bunday tuzilmalarga modellarining yuqori darajadagi klisheilanishi xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ройзензон Л.И. Лекции по общей и русской фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1973. – С.171-180.
2. Бушуй А.М. Сущность языка как проблема общей лингвистики. – Самарканд: СамГИИЯ, 2004. – 90 с.
3. Juraqulov R.D. Ertak janrining o‘ziga xos xususiyatlari // Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. - № .5. – С. 786-794.
4. Jurakulov R. Теория фольклорной фразеологии (по данным изучения языка сказки) // Журнал Педагогика и психологии в современном образовании - 2022. – Т. 2. - №. 3.
5. Davronovich J.R. Lexical Features of folklore // EPRA International Journal of Development (IJRD). – 2022. – Т.7. - № 2. – С. 56-58.
6. Mohinur R., Jurakulov R.D. Classification of Proverbs used in Folklore // Miasto Przyszosci. – 2022. – Т. 24. – С. 448-449.
7. Журакулов Р. Об особенностях фразеологии узбекских народных сказок // Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2018. – Е.3. - № 2 (67). – С. 47-51.
8. Davronovich J.R. Opinions of some scholars on the phraseology of folklore // International Journal of Health Sciences. - №. IV. – С. 815-819.